

## BOSHQALARGA TA'SIR KO'RSATISHGA QOBILMISIZ?

Ma'lumki har birimiz boshqa odamlarning ta'siriga berilganmiz, ba'zan har bir odam boshqalarga o'ziga ma'lum yo'nalishda ta'sir ko'rsatishga harakat qiladi. Sizda qanchalik ta'sir kuchi borligini tekshirib ko'rishni taklif qilamiz. Siyosatchilar, pedagoglar, vrachlar, jurnalistlar, aktyorlar o'z kasblariga ko'ra shunday sifatga ega bo'lishlari lozim. Agar siz boshqalarga ta'sir ko'rsatishga, ularni ishontirishga qobilligingizni bilmoqchi bo'lsangiz psixologik o'yinimizda ishtirok eting.

1. Aktyor yoki siyosatchi kasbini tanlagan bo'larmidingiz?  
Xa Yo'q
2. Olibta kiyingan va o'zini olibta tutadigan odamlar sizning g'ashingizni keltiradimi?  
Xa Yo'q
3. O'z shaxsiy kechinmalaringizni birov bilan o'rtoqlashishga qodirmisiz?  
Xa Yo'q
4. O'zingizga nisbatan ozgina nomaoqul munosabatga xam darhol e'tibor berasizmi?  
Xa Yo'q
5. Siz muvaffaqiyatga erishishni xohlagan soxadagi boshqalarning muvaffaqiyati nafsoniyatingizga tegadimi?  
Xa Yo'q
6. Faqat o'zingizni ko'rsatish uchun juda qiyin vazifani xam zimmangizga olishga tayyormisiz?  
Xa Yo'q
7. Qandaydir o'ziga xos narsaga erishmoq uchun xamma narsani qurbon qila olasizmi?  
Xa Yo'q
8. Siz har doim bir xil do'stlar davrasida bo'lishni xohlaysizmi?  
Xa Yo'q
9. Xayotda soatma-soat belgilab qo'yilgan qat'iy jadvalga rioya qilasizmi?  
Xa Yo'q
10. Kvtirirada mebelning o'rnini almashtirishni yaxshi ko'rasizmi?  
Xa Yo'q
11. Odatdagi ishni har safar yangicha bajarish sizga yoqadimi?  
Xa Yo'q
12. O'ziga bino qo'yganlarning g'ashiga tegishni yaxshi ko'rasizmi?  
Xa Yo'q
13. O'z boshlig'ingiz yoki xamma tan oladigan obro'li odamga «siz noxaqsiz» deb ayta olasizmi?  
Xa Yo'q

T\R	Xa	Yo'q
1	5	0
2	0	5
3	5	0
4	5	0
5	5	0
6	5	0
7	5	0
8	0	5
9	0	5
10	5	0
11	5	0
12	5	0
13	5	0

Agar siz 35 balldan 65 ballgacha to'plagan bo'lsangiz unda:

Sizda boshqalarni o'z ta'siringizga bo'ysundirish, ularni qayta tarbiyalash, nasixat qilish, yo'l-yo'riq ko'rsatish uchun xamma asoslar bor. SHunday rolda siz o'zingizni juda yaxshi xis qilasiz. Odam bir o'zi bilan ovora bo'lib qolmasligi, boshqalardan qochmasligi, bir chekkada qolmasligi va faqat o'zini o'ylamasligi kerak deb ishonasiz.

Aksincha, u boshqalar uchun nimadir qilishga intilishi, ularni boshqarishi, xatolarini ko'rsatishi, atrof-borliqning yorqin tomonlarini ko'rishga o'rganishi kerak deb xisoblaysiz. Siz boshqalarni ishontirish va ularga taosir ko'rsatishga qodirsiz. Lekin o'zingizning murabbiyligingizda chegaradan chiqib ketmang, bo'lmasa fanat yoki tiranga aylanib qolasiz.

Agar siz 0 dan 35 ballgacha to'plagan bo'lsangiz, unda:

Ko'p xolatlarda xaq bo'lmasangiz xam, siz boshqalarni ishontirishga qodir bo'lgan taosir kuchiga ega emassiz, o'zingiz va boshqalar uchun xam qatoiy tartibga solingan, soʻlom aql va odob axloq qonunlariga bo'ysingan xayot va oldindan maolom bo'lgan kelajak ideal tuyuladi. Siz kuchingizdan ortiq xech narsa qilishni yoqtirmaysiz. Baozan xaddan tashqari bosiq, vazminsiz, bu narsa baozan maqsadga erishishingizga xalaqit beradi, sizning xulqingiz xaqida noto'g'ri tasavvur tuyulishiga olib keladi.